Qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliq turi bo'lib, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismini davlat budjetiga olish shaklidir. U tovar va xizmatlardan olinadigan bilvosita (egri) soliqlar tarkibiga kiradi. Mazkur soliq birinchi marta fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan va 1960-yilda Kot-d'Ivuar Respublikasida soliq tizimiga joriy etilgan. O'zbekistonda esa 1992-yildan boshlab qo'llanilmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'iga solinadigan obyekt sifatida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish va import qilish aylanmasi belgilanadi. Sotish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan aylanma sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida narxlar va tariflarni hamda aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan aylanma mablag' soliq obyektiga turiga qarab o'ziga xos usulda aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarilgan tovarlarning yuklab jo'natilgan qismining qiymati, amalga oshirilgan qurilish, ta'mirlash, konstruktorlik, texnologik, qayta ta'mirlash va boshqa shunga o'xshash ishlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Xizmatlar ko'rsatilganda esa transport vositalari yordamida bajarilgan ishlar qiymati, ijara haqi, vositachilik xizmati, infratuzilma, reklama va boshqa xizmatlar qiymati soliq obyektiga bo'ladi. Aksiz tovarlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga tortishda uning obyektiga jo'natilgan aylanmaga aksiz solig'i qiymati qo'shilgan holda aniqlanadi. Hozirgi kunda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foiz miqdorda belgilangan.

Soliq munosabatlarining ikkinchi ishtirokchisi bo'lgan soliq to'lovchilarning ham huquqlari va majburiyatlari mavjud. Ularning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat — O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksining 1-moddasiga muvofiq, Kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilish, ularni hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Soliq solish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 7-moddasiga muvofiq prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Soliq solishning 8 ta asosiy prinsipi mavjud. Shu prinsiplar asosida soliqqa tortish amalga oshirilgan taqdirda, davlat budjeti o'z vaqtida to'ldiriladi va soliq to'lovchilarning soliq yuki me'yoriy darajada bo'ladi. Shuningdek, soliqqa tortish mazkur prinsiplar asosida olib borilsa, yashirin iqtisodiyot kamayadi, investitsion muhit yanada yaxshilanadi. Buning sababi shundaki, chet ellik investorlar qonun ustuvor bo'lgan mamlakatlarga doimiy ravishda sarmoya kiritishga intiladilar. Soliq to'lovchilar soliq munosabatlarining subyektlari hisoblanadi. Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solish obyektiga mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq majburiyati vujudga keladi² (1-rasm).

1 Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, “Солиқ хизмати тўғрисида” ЎРҚ-474-І-сон, 29 август 1997 йил.

2 Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, ЎРҚ -589-сон қонуни, 30 декабр 2019 йил.



1-rasm. Soliq solishning asosiy prinsiplari³

Soliqqa tortishning majburiylik prinsipi soliq solish barcha uchun bir xilda majburiy ekanligini belgilab, O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi bo'lgan Konstitutsiyada mustahkamlangan. Soliq solishning aniqlik prinsipi soliqning aniq qonun bilan belgilanishini talab qiladi, oshkoralik prinsipi esa barcha daromad qilgan shaxslarning yashirin daromadsiz, oshkora tarzda soliq to'lashi lozimligini ta'kidlaydi. Adolatlilik prinsipi soliqlar daromadga qarab adolatli taqsimlanishi kerakligini belgilaydi. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi butun mamlakat uchun yagona tizim amal qilishini va faoliyat yuritishini bildiradi. Nihoyat, soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi prinsipi qonunchilik bilan tartibga solinmagan har qanday holat soliq to'lovchi foydasiga hal etilishini nazarda tutadi.

Soliq hisobotlari ma'lumotlar bazasida mavjud ma'lumotlar bilan taqqoslanganda tafovutlar aniqlanmasa, dastur avtomatik tarzda soliq nazorati mexanizmini (tax control equipment) qulfdan chiqaradi, bu esa korxonaga EXF rasmiylashtirishni davom ettirish imkonini beradi. Agar hisobotlarda kamchilik aniqlansa, "Golden Tax Project Phase III Core Collection and Management System" tizimi hisobotni tasdiqlashni rad etadi va nomuvofiq ma'lumotlarni tekshirish hamda hisobotni qayta taqdim etish uchun soliq to'lovchiga qaytaradi. Soliq to'lovchi hisobotdagi ma'lumotlar to'g'riligini tasdiqlasa, tizim taqqoslash natijasidan qat'i nazar hisobotni saqlaydi hamda elektron hisobvaraqa-faktura yaratish imkoniyatini blokdan chiqaradi.

Biroq, agar hisobotdagi ma'lumotlardan kamida bittasi kuch monitoringi (force monitoring) tizimidagi ma'lumotlarga mos kelmasa va soliq to'lovchi hisobot to'g'riligini tasdiqlagan taqdirda ham, hisobot qabul qilinishiga qaramay EXF yaratish imkoniyati blokdan chiqarilmaydi. Bunday holatlarda soliq to'lovchi asoslovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi shart. Agar taqdim etilgan hisobotlarda soliq to'lovchining soliq solish bilan bog'liq jiddiy noqonuniy xatti-harakatlari, masalan, schyot-fakturalarni noto'g'ri rasmiylashtirish gumoni mavjud bo'lsa, tizim orqali hisobot Audit departamentiga yuboriladi. Audit departamenti tegishli hujjatlar asosida hisobotni tekshiradi va "qulfdan ochish ma'qullangan" tugmasi bosilganda tizim soliq to'lovchilar uchun soliq nazorati uskunasi blokdan chiqaradi. Shuningdek, QQSni qaytarish jarayonida ham raqamli mexanizmlar qo'llanilmoqda.

Xitoyda QQSni qaytarish tizimining evolyutsiyasi bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. 2018-yilda bir martalik QQSni qaytarish mexanizmi joriy etilib, ilg'or ishlab chiqarish asbob-uskunalar va texnikalari ishlab chiqaruvchilar, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalari hamda elektr tarmog'i korxonalari uchun QQS summasini bir martalik qaytarib olish imkoniyati berildi. 2019-yil 1-aprelda ushbu tizim sanoat korxonalari uchun joriy qilindi. O'sha yilning 1-iyunida nometall mineral mahsulotlar, umumiy va maxsus texnikalar, kompyuter, aloqa va boshqa elektron qurilmalar ishlab chiqaruvchilar uchun har oyda to'liq hajmda QQS o'rnini qoplashga ruxsat etildi. 2021-yil 1-apreldan boshlab tibbiy, kimyoviy tola, temiryo'l, suv osti va kosmik transport vositalari, elektr mashinalar va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilarni qamrab olgan 5 ta yangi soha qo'shildi. 2022-yil

3 Солиқ кодекси асосида муаллиф томонидан тайёрланган.



1-apreldan esa kichik va mikro korxonalar hamda ulgurji va chakana savdo korxonalari oylik asosda QQSni qaytarish huquqiga ega bo'ldi.

Qo'shilgan qiymat solig'ida manfiy farq summasini qoplab berish uchun kimlar ariza taqdim eta oladi degan savolga quyidagicha javob beriladi:

- A yoki B soliq xavfi reytingiga ega bo'lishi;
- Qolgan soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'langan soliqlarni firibgarlik yo'li bilan qaytarib olmagan bo'lishi;
- Oxirgi 36 oy ichida soliq organi tomonidan ikki marta yoki undan ko'p soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilmagan bo'lsa (1-jadval).

1-jadval. Xitoy Xalq Respublikasining 2014-2023-yillar davomidagi soliq tushumlari va unda qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi hamda dinamikasi⁴

Yillar kesimida	QQS tushumi (trln. yuan)	O'sish dinamikasi (%)	Jami soliqlar tushumlari (trln. yuan)	O'sish dinamikasi (%)	QQS ulushi (%)
2014	2.88	9.1	11.05	9.9	26.1
2015	3.09	1.7	11.91	7.8	25.9
2016	3.11	0.8	12.49	4.8	24.9
2017	4.07	30.9	13.04	4.4	31.2
2018	5.64	38.5	14.44	10.7	39.1
2019	6.15	9.1	15.64	8.3	39.3
2020	6.23	1.3	15.8	1	39.5
2021	5.68	-8.9	15.43	-2.3	36.8
2022	6.35	11.8	17.27	11.9	36.8
2023	4.87	-23.3	16.66	-3.5	29.2

Ma'lumot uchun 2023-yilda 1 yuan = 1587 so'm, 1 AQSh dollari = 7 yuan

Xorij tajribasini o'rganish bilan bir qatorda, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirishda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar keltirilgan. Iqtisodiy jihatdan korxonalarda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishga ular to'laydigan soliq yuki hamda jamiyatda ishbiarmonlik muhitining rivojlanganligi ta'sir etadi. QQS stavkasining pasaytirilishi iqtisodiy sektorda "soya"da faoliyat yuritayotgan korxonalarni qonuniylashtirishga olib keladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlillariga ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasining 15 foizdan 12 foizgacha pasayishi O'zbekistonda ishbiarmonlik muhitining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq bu holat 2023-yil yanvar oyida anomal sovuq tufayli yuzaga kelgan og'ir ob-havo sharoitlari sababli unchalik sezilmadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

⁴ Muallif tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi to'g'risidagi rasmiy manba ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



to'g'risida"gi farmoniga muvofiq yangicha mexanizmlar va imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, soliq tekshiruvlari o'tkazishda toifalarga muvofiq monitoring tartibi soddalashtirildi. Eng kam belgilangan me'yor mikrofirmalarga, shuningdek, QQS to'lovchilariga ham tatbiq etildi. Mahsulotlar, ish va xizmatlar realizatsiyasi hajmi 1 milliard so'm etib belgilanishi aylanmadan olinadigan soliq rejimining maksimal miqdorini ko'rsatadi.

2023-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marta o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urtalash xarajatlarining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab beriladi.

- Jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida budget buyurtmachilari bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lov amalga oshiriladi. Bunda soliq organlari tomonidan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantirilib, maxsus axborot portali orqali almashinuvi ta'minlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligiga oid quyidagilar bekor qilindi:

- Davlat xaridlarida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar takliflarini baholashda qo'shilgan qiymat solig'i summasi inobatga olinmaydi.

- Yuqori qo'shilgan qiymatli mis mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorda sotish bilan bog'liq xarajatlarini eksport qiymatining 6 foizigacha qoplash tartibi bekor qilindi.

Shuningdek, ishonchli soliq to'lovchilarni inson omilisiz aniqlash tizimi joriy etildi. Dori vositalarining davlat sog'liqni saqlash muassasalariga bepul berilishi yoki amal qilish muddati qisqaligi sababli narxi pasaytirilgan qiymat bo'yicha realizatsiya qilinishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan xarajatlardan (zararlar) deb e'tirof etildi va ular foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanishi belgilandi.

2023-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlariga avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari va avtomobillarga gaz quyish stansiyalarida elektron o'lchash uskunalar hamda onlayn videokameralarni o'rnatish va ularni soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish majburiy hisoblanadi. Paxta xomashyosi, g'alla yoki sholini qabul qilish va hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlari operatorlari ham o'z tizimlarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari majburiy etib belgilandi.

Barchaga ma'lumki, inson omilisiz elektron tizim yashirin iqtisodiyotning, qolaversa, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bugungi kunda zamonaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni tez sur'atlarda ortib bormoqda. O'tgan yilning o'zida soliq to'lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetdan foydalanishlar soni 40,5 milliontani (2020-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p), yuborilgan elektron hisobvara-fakturalar soni 33,9 milliontani (2020-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'p), onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali ro'yxatga olingan cheklar soni 417,4 milliontani (2020-yilga nisbatan 4 baravar ko'p) tashkil etdi. Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida giperkonvergent texnologiya yo'lga qo'yilib, u axborot tizimlariga yuklama hajmini serverlararo taqsimlab, ularning uzluksiz faoliyatini ta'minlamoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi soliq to'lovchining arizasiga muvofiq beriladi. Soliq to'lovchi ariza berishda Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq majburiy tartibni yoki 462-moddasiga muvofiq ixtiyoriy tartibni tanlashi mumkin. Ariza yuborilgach, Vazirlar Mahkamasining 595-son qaroriga asosan avtomat tarzda tekshiriladigan mezonlar orqali soliq to'lovchining soliq xavfi darajasi o'rganiladi. Agar soliq to'lovchining soliq xavfi yuqori bo'lsa, QQS guvohnomasi uchun ariza rad etiladi va bu haqda qaror shakllanib, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Soliq xavfi o'rta yoki past bo'lsa, ariza o'rganishga olinadi va 7 ish kuni davomida soliq to'lovchining yuridik manzilida mavjudligi hamda tovar nomutanosibli holatlari tekshiriladi. Soliq inspektori tomonidan amalga oshirilgan har bir o'rganish natijalari yuklanadi. Kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, soliq to'lovchiga QQS guvohnomasi beriladi.

Agar soliq to'lovchi soliq organlari ma'lumotlar bazasiga ko'ra majburiy tartibda QQS to'lovchisi bo'lsa, u holda soliq to'lovchining "majburiy tartibda" ko'rinishida yuborilgan arizasi hech qanday tekshiruvsiz qabul qilinadi va QQS guvohnomasi beriladi. Yuborilgan ariza egasining tovar nomutanosibli 7 ish kuni davomida o'rganiladi va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, soliq inspektori xulosasi asosida QQS guvohnomasi vaqtincha to'xtatib turiladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son Farmoniga muvofiq soliq xavfi yuqori darajaga ega soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomasining amal qilishini to'xtatib turish tartibi joriy etildi. Bu haqda soliq organlari tomonidan soliq to'lovchiga 5 ish kuni oldin xabarnoma yuboriladi va mazkur muddatda kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda guvohnomaning amal qilishi to'xtatiladi.

QQS to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tmoqchi bo'lgan korxonalar tomonidan ixtiyoriy tartib tanlangan holda ariza taqdim etiladi, bunda korxona keyingi oyning birinchi sanasidan QQS to'lashga o'tishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'i guvog'nomalarining berilganligi dinamikasi (mlrd.sum)⁵

Xudud nomi	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Respublika bo'yicha	12 775	85 481	113 566	143 034	173 417	190 272	201 023
QQR	855	5 468	6 418	7 472	9 033	9 363	9 922
Andijon v	1 116	5 836	7 770	9 232	11 362	11 205	12 515
Buxoro v	664	6 444	8 456	10 243	11 824	13 029	13 137
Jizzax v	402	3 889	5 103	6 088	7 456	7 635	7 736
Qashqadaryo v	685	7 139	10 665	13 711	15 485	16 360	17 287
Navoiy v	429	2 754	3 714	4 927	5 966	6 550	6 707
Namangan v	594	4 756	6 383	8 162	9 703	10 152	10 607
Samarqand v	1 216	6 752	8 733	10 968	13 225	14 637	15 370
Surxondaryo v	776	4 445	6 327	7 659	9 060	9 380	10 101
Sirdaryo v	245	3 060	3 951	4 841	5 858	6 153	6 505
Toshkent v	889	7 043	9 237	12 187	15 161	16 411	18 476
Farg'ona v	936	6 266	8 495	10 488	13 224	14 530	15 367
Xorazm v	707	4 199	5 134	6 661	8 036	8 595	9 109
Toshkent sh	3 261	16 474	22 168	29 347	37 153	44 197	47 345
MRI	0	956	1 012	1 048	871	2 075	839

2-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, yetti yil mobaynida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari 12 775 tada 201 023 taga qadar ko'paygan bu qadar ko'p sonli guvohnomalarni berish juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan ishdir. Bu ishlarni raqamlartirilgan tizimlar orqali amalga oshirish soliq to'lovchilarga hamda soliq organi xodimlariga tez shaffof va samarali ishlash imkoniyatlarini yaratib beradi (2-rasm).

2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining faol guvohnomalarining dinamikasi⁶

5 Muallif tomonidan tuzilgan

6 Rasm muallif tomonidan tuzilgan



Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi soliq to'lovchilar uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq to'lovchi soliq xavfi guruhlaridan biriga kiritilganligi asosida soliq organi arizani ko'rib chiqish hamda undagi ma'lumotlarni tekshirish va tahlil qilishni yakunlagandan so'ng ikki ish kuni ichida quyidagilarni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi: soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — maxsus ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida; soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — keyingi o'n ikki oy ichida soliq nazoratining tekshiruv tadbirlarini o'tkazish sharti bilan maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida; soliq xavfi past bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror soliq organining rahbari (yoki rahbar o'rinbosari) tomonidan qabul qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 595-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 12-bandida belgilangan muddatlarda taqdim etilganda, shuningdek, tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish summolari Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida belgilangan miqdordan oshgan taqdirda soliq to'lovchi ariza taqdim etilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan maxsus ro'yxatdan o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchiga nisbatan soliq organi maxsus ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soliq nazorati tadbirlarini (ko'zdan kechirish, so'rov, kameral va sayyor soliq tekshiruvlari, xodimlarning hisobotdagi va haqiqiy soniga muvofiqligini nazorat qilish) amalga oshiradi. Maxsus ro'yxatdan o'tkazish yoki uni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorning bir nusxasi u qabul qilingan kundan boshlab bir ish kuni ichida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Maxsus ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan soliq to'lovchi rad etishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etgach, yangidan ariza berishga yoxud rad etish to'g'risidagi qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilishga haqli. Soliq organlarining murojaatlar soni ham soliq to'lovchilarning murojaatlariga mutanosib ravishda oshganini yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Bu esa soliq organlari ish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Shu yo'l bilan yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan soliq ma'murchiligining zamonaviy instrumentlari qatorida shaffoflikni ta'minlash, inson omilisiz operatsiyalarni shakllantirish va amalga oshirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda oldini olishga xizmat qilmoqda. Bu korrupsiya illatini bartaraf etish yo'lida muhim qadamlardan biridir. Misol uchun, soliq to'lovchi tomonidan bir chorakda katta miqdordagi QQS summasini hisobga olish (kamaytirish) bo'yicha hisob-kitob taqdim etilgan. Ushbu summa o'tgan chorak hisobotida ko'rsatilgan summadan ancha yuqori bo'lsa, soliq organi xodimida topshirilgan hisobot yuzasidan shubha tug'iladi va soliq to'lovchiga bu summani kamaytirish yuzasidan tushuntirish hamda asoslovchi hujjatlarni taqdim etish bo'yicha soliq organi tomonidan shaxsiy kabinet orqali talabnoma yuboriladi. Bu jarayonda soliq to'lovchi o'z xato va kamchiliklarini ko'rib chiqib, qayta hisob-kitob qilib to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, elektron hisobvara-faktura tizimi joriy qilinishi bilan biznesning shaffoflik darajasi ortganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, yuqori likvidli tovarlar bo'yicha elektron hisobvara-fakturalarni rad etish muddati qisqartirilgani natijasida bu sohadagi yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ham pandemiya davrida elektron hujjat aylanish tizimidan foydalanish darajasi keskin ortdi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi soliq to'lovchilar sonining ortishi va ularni tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish zaruratining yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Agar bu jarayon avtomatlashtirilmaganida, soliq to'lovchilar tomonidan hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi faqat tekshirish jarayonida aniqlangandan keyin budjetga undirilishi ta'minlangan bo'lardi. Avtomatlashtirish natijasida esa bir summaning ikki marta hisobga olinishi cheklanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Кукарина Юлия Михайловна, Формирование и развитие понятия “электронный документ” в зарубежном и Российском законодательстве, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук, Москва-2004, 32 с.
3. Кортиков Федор Сергеевич, Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург-2013, 19 с.
4. Жарков А.А. Система электронного документооборота/ А.А. Жарков// Наука, техника и образование. -2014.- №3(3).- 65-71 бетлар.
5. Бисултанов Амир Нажмудиевич, Развитие методико-инструментальной базы налогового администрирования условиях цифровизации экономики, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Владикавказ-2019, 26.



6. Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong. The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform. // China Economic Review. Volume 54, April 2019. – Pages 135-146
7. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // Procedia Economics and Finance. Volume 36, 2016. Pages 336-344. Самотуга Александр Евгеньевич, Распознавание субъектов и их психофизиологических состояний на основе параметров подписи для защиты документооборота автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Омск-2017, 18.с.
8. Петров Юрий Юревич, Методы управления промышленным предприятием на основе электронного документооборота, автореферата кандидат экономических наук, Санкт-Петербург, 2003, 23.с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
